



**SHAHARLARDAGI EKOLOGIK MUAMMOLAR VA
ULARNI HUDUDIY TAHLIL QILISH(QO'QON SHAHRI
MISOLIDA)**

Qoqon davlat universiteti 09/25-geo(m) talabasi

Mamasiddiqova muxlisaxon karimbek qizi

mamasiddiqovamuxlisa@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada shaharlarda ekologik muammolarning paydo bo'lishi va shakllanish sabablari hamda ularning hududiy tarqalish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida Qo'qon shahri tanlanib, shahar hududidagi ekologik muammolar — atmosfera havosining ifloslanishi, maishiy chiqindilar hajmining ortishi, yashil hududlar maydonining qisqarishi, shovqin darajasining oshishi hamda suv resurslari sifatining yomonlashuvi kabi holatlar kuzatildi va bu holatlar chuqur o'rganildi.

Tadqiqotim jarayonida hududiy tahlil, statistik tahlil, kuzatuv, kartografik va qiyosiy metodlardan keng foydalanildi. Olingan natijalardan shuni bilish mumkinki, Qo'qon shahrida ekologik muhitning yomonlashuvi urbanizatsiya jarayonlarining tez sur'atlarda jadallashuvi, transport vositalari sonining ko'payishi, aholi xo'jalik faoliyatining esa kengayishi va aholi sonining o'sishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ekologik muammolarning ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tahlil qilingan holda, Qo'qon shahri hududida ekologik muhitni yaxshilash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shahar ekologik xavfsizligini ta'minlash va hududiy rejalashtirish jarayonlarida foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega.



KALIT SO'ZLAR. ekologik muammolar, shahar ekologiyasi, urbanizatsiya, hududiy tahlil, atmosfera ifloslanishi, chiqindilar, yashil hududlar, Qo'qon shahri, ekologik monitoring.

KIRISH.

Hozirgi davrda shahar hududlarida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ekologik muammolarning kuchayishi kuzatilmoqda¹. Aholi sonining ortishi, transport vositalari va sanoat faoliyatining kengayishi, maishiy chiqindilar hajmining ko'payishi hamda yashil hududlar maydonining qisqarishi shahar ekologik muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda². Ushbu jarayonlar atmosfera havosining ifloslanishi, shovqin darajasining oshishi, suv va tuproq resurslarining degradatsiyasi kabi muammolarni yuzaga keltirib, aholi salomatligi hamda shahar iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli shahar hududlarida ekologik muammolarni ilmiy asosda o'rganish va ularni hududiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy ilm-fan va amaliyotning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi³.

Farg'ona vodiysining muhim tarixiy va iqtisodiy markazlaridan biri hisoblangan Qo'qon shahrida ham so'nggi yillarda shahar hududining kengayishi, transport infratuzilmasining rivojlanishi hamda aholi sonining ortishi ekologik muhitga qo'shimcha yuklama keltirib chiqarmoqda. Natijada shahar hududida atmosfera havosining ifloslanishi, maishiy chiqindilar hajmining ortishi, yashil hududlar yetishmovchiligi va shovqin darajasining oshishi kabi ekologik muammolar shakllanmoqda. Ushbu muammolarni hududiy jihatdan o'rganish va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash shahar ekologik xavfsizligini ta'minlash hamda barqaror rivojlanishni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega⁴.

¹ Soliyev A.S. Shaharlar geografiyasi. — Toshkent: Universitet, 2019.

² Mo'minov O.A. O'zbekiston shaharlarining ekologik muammolari. — Toshkent: Fan, 2018.

³ Nazarov B.B. Ekologik monitoring asoslari. — Toshkent: Fan, 2021.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Farg'ona viloyati boshqarmasi. Atrof-muhit holati to'g'risida hududiy hisobot. — Farg'ona, 2023



Mazkur tadqiqot ishining maqsadi Qo'qon shahrida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni hududiy jihatdan tahlil qilish hamda ularning kelib chiqish sabablarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- shaharlarda ekologik muammolarning shakllanish omillarini aniqlash;
- shahar qurilishi va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish;
- Qo'qon shahrida mavjud ekologik muammolarni hududiy jihatdan baholash;
- ekologik muammolarning ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sirini aniqlash;
- shahar ekologik muhitini yaxshilash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish⁵.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qo'qon shahri ekologik muhitini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham mavjud bo'lib, ularda shahar hududida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar va ularning hududiy xususiyatlari tahlil qilingan. Jumladan, R.A. Turg'unov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Qo'qon shahrida transport vositalari sonining ortishi atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo'layotgani qayd etilgan. Shuningdek, D.X. Xolmatov va S.B. Karimov tomonidan o'tkazilgan ilmiy kuzatuvlarda shahar hududida maishiy chiqindilar hajmining ortishi sanitariya holatining yomonlashishiga olib kelayotgani ilmiy asosda ko'rsatib berilgan⁶.

Xorijiy olimlardan R. Seto, M. Cohen, D. Hardoy, S. Angel va P. Newman o'z tadqiqotlarida urbanizatsiya jarayonlari va ekologik muammolar

⁵ 1] Soliyev A.S. Shaharlar geografiyasi. — Toshkent: Universitet, 2019.

⁶ Turg'unov R.A., Xolmatov D.X., Karimov S.B. Shahar hududlarida ekologik muammolar va ularning shakllanish omillari. — Toshkent: Fan, 2020.



o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, shahar hududlarida transport tizimi va sanoat faoliyatining rivojlanishi ekologik muhitning yomonlashishiga olib kelishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar⁷.

NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Qo'qon shahri hududida ekologik muammolarning shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, shahar hududida ekologik muhitning yomonlashuvi asosan transport vositalari sonining ortishi, maishiy chiqindilar hajmining ko'payishi hamda yashil hududlar maydonining qisqarishi bilan bog'liq.

Shuni aytishim muhimki, , Qo'qon shahar xududida faoliyat olib borayotgan Atrof muxitga ta'sir ko'rsatuvchi 1 toifaga mansub bo'lgan "Qo'qon Indorama fertilizers And minerals" qo'shma korxonasi bahorgi mavsumda korxonada xududi va unga tutash bo'lgan maydonlarga "Yashil belbog"lar barpo etish uchun jami 10000 ming tup manzarali va mevali daraxt ko'chatlarini ekilishi rejalashtirilgan. "Qo'qon Indorama fertilizers And minerals" qo'shma korxonasi tomonidan xaqiqatan ishlab chiqarish obektlarining chegara xududlariga har xil turdagi ko'p yillik daraxt ko'chatlari ekilganligini bilib olishimiz mumkin⁸.

Hududiy kuzatuvlar natijasida transport harakati yuqori bo'lgan joylarda atmosfera havosining ifloslanish darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqori ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga, chiqindilarni yig'ish va olib chiqish tizimining ayrim hududlarda yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi natijasida chiqindilar to'planib qolishi va sanitariya holatining yomonlashishi holatlari aniqlangan.

MUHOKAMA

⁷ Seto K.C., Cohen M., Angel S., Newman P., Hardoy D. Urbanization and Environmental Change: Challenges and Opportunities. — Cambridge: Cambridge University Press, 2016.

⁸ Qo'qon shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi



O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Qo'qon shahrida ekologik muhitning yomonlashuvi natijasida yuzaga kelayotgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar aniqlanib, ular ustunli diagramma ko'rinishida umumlashtirildi. Tahlil jarayonida aholi salomatligining yomonlashuvi, atmosfera havosining ifloslanishi va maishiy chiqindilar hajmining ortishi shahar ekologik muhitiga eng katta ta'sir ko'rsatayotgan omillar ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, olib borgan kuzatuvlarim natijasida yashil hududlar maydonining qisqarishi va shovqin darajasining oshishi aholi turmush sifati hamda shahar infratuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Mazkur diagramma orqali ekologik muammolar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari o'zaro bog'liq holda shakllanayotganini ko'rsatishga harakat qilindi.

O'rganish davomida Qo'qon shahar MFYlar xududlari va axoli tamarqalari atroflarida 50 ming reja berilgan bo'lib 50 ming ekilib 100% foizga bajarilgan bulsada.

Shikorbegi MFY xududlarida 1500 tup manzarali va mevali ko'chatlar ekilgan bo'lsada sug'orish tizimi bor joyga 500 tup ko'chat elgan 1000 tup kuchat sug'orishi bo'lmagan joyga ekanligi aniqlandi.

Obodonlashtirish boshqarmalari hududlariga 15 ming reja berilgan bo'lib, amalda 32 ming ekilib 200% foizga bajarilgan.

1.Davronbek va Istiqlol MFY xududlariga shtab tomonidan berilgan malumotga qadar borib o'rganilganda Istiqlol MFY xududiga 1500 tup manzarali daraxt ko'chatlarni borib ko'rilganda 1000 ming ekilganligi aniqlandi.

2.Davronbek MFY xududiga shtab tomonidan 1000 tup ekildi degan malumotga asosan borib ko'rilganda 800 ming tup ekilganligi aniqlandi⁹.

⁹ Qo'qon shahar Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi




Diagramma Qo'qon shahridagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'tkazgan tadqiqotlarim natijasida Qo'qon shahrida ekologik muammolar asosan transport vositalari sonining ortishi, maishiy chiqindilar hajmining ko'payishi va yashil hududlar yetishmovchiligi bilan bog'liq holda shakllanayotgani aniqlandi. Ushbu muammolar shahar ekologik muhitiga hamda aholi turmush sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatildi.

O'tkazgan tadqiqotlarim natijasida Qo'qon shahrida ekologik muammolarning shakllanishi asosan shahar hududining kengayishi, transport vositalari sonining ortishi va maishiy chiqindilar hajmining ko'payishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, markaziy hududlarda transport oqimining yuqoriligi atmosfera havosining ifloslanishiga hamda shovqin darajasining oshishiga olib kelayotgani kuzatildi. Bu holat shahar ekologik muhitining



barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, aholi turmush sifati va sanitariya holatiga ham ta'sir etayotganini ko'rsatadi¹⁰.

Shuningdek, olib borgan kuzatuvlarim davomida ayrim turar-joy hududlarida maishiy chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash tizimining yetarli darajada tashkil etilmaganligi ekologik muhitning yomonlashishiga sabab bo'layotgani aniqlandi. Ushbu muammo, ayniqsa, aholi zich joylashgan hududlarda ko'proq kuzatilmoqda. Bu esa ekologik muammolarni hududiy jihatdan o'rganish va ularni boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi¹¹.

Olib borgan tahlillarim natijasida Qo'qon shahrida ekologik muammolarning shakllanishida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi muhim omil sifatida namoyon bo'layotgani aniqlandi. So'nggi yillarda shahar hududida yangi turar-joy massivlari va savdo obyektlarining ko'payishi natijasida yashil hududlar maydonining qisqarishi hamda yer resurslaridan foydalanish intensivligi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar shahar mikroiklimining o'zgarishiga, yoz oylarida haroratning nisbatan yuqori bo'lishiga hamda chang miqdorining ortishiga olib kelayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, shahar infratuzilmasining kengayishi bilan bir qatorda transport vositalari sonining ortishi ham ekologik muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, asosiy transport yo'nalishlarida havo tarkibida zararli gazlar miqdorining ortishi hamda shovqin darajasining oshishi kuzatilmoqda. Bu holat ekologik muammolarni kamaytirish uchun shahar hududida ekologik nazoratni kuchaytirish va transport tizimini tartibga solish zarurligini ko'rsatadi¹².

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. Atrof-muhit holati to'g'risida milliy hisobot. — Toshkent, 2023.

¹¹ Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi. Qo'qon shahri bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlar. — Farg'ona, 2023.

¹² O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. — Toshkent, 2024.



Shunday qilib, shahar hududida ekologik monitoringni kuchaytirish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va yashil hududlar maydonini kengaytirish zarur deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Soliyev A.S.** Shaharlar geografiyasi. — Toshkent: Universitet, 2019.
2. **Mo'minov O.A.** O'zbekiston shaharlarining ekologik muammolari. — Toshkent: Fan, 2018.
3. **Nazarov B.B.** Ekologik monitoring asoslari. — Toshkent: Fan, 2021.
4. **O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Farg'ona viloyati boshqarmasi.** Atrof-muhit holati to'g'risida hududiy hisobot. — Farg'ona, 2023
5. **Soliyev A.S.** Shaharlar geografiyasi. — Toshkent: Universitet, 2019.
6. **Turg'unov R.A., Xolmatov D.X., Karimov S.B.** Shahar hududlarida ekologik muammolar va ularning shakllanish omillari. — Toshkent: Fan, 2020.
7. **Seto K.C., Cohen M., Angel S., Newman P., Hardoy D.** Urbanization and Environmental Change: Challenges and Opportunities. — Cambridge: Cambridge University Press, 2016.
8. Qo'qon shahar Ekologiya bo'limi
9. Qo'qon shahar Ekologiya bo'limi